



**«OLMALIQ KMK»
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

PRESS-RELIZ

2025-yil 7-may

Mavzu: “Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida Transformatsiya jarayoni”

O‘tkazilish joyi: Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida OKMK mas’ullari ishtirokida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida Transformatsiya jarayoni” mavzusida matbuot anjumani o‘tkazildi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish sohasi ham tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Jahon bozoridagi yuqori raqobat, mijozlar talablari ham transformatsiyaga bo‘lgan zaruratning omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, raqamlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish korxona taraqqiyotiga qo‘yilgan muhim bir qadamlardan biridir.

Hozirgi kunda OKMKda transformatsiya yo‘nalishida bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Dastur doirasida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish, Strategiya va operatsion samaradorlik, Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, Barqaror rivojlanish (ESG), Raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

OKMK nafaqat samarali, balki uzoq muddatli istiqbolda barqaror va raqobatbardosh bo‘lishi uchun korxonada Transformatsiya, ESG tartibi va xalqaro reytinglar loyiha ofisi tashkil etildi. Ushbu jamoa shaffof hisobotdan tortib strategik rejalashtirishgacha bo‘lgan eng yaxshi jahon amaliyotlarini joriy etish uchun mas’uldir.

OKMK 2019 yildan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - biznes uchun butun dunyoda tan olingan qoidalar bo‘yicha hisobot yuritadi. Ushbu standartlarni joriy etishga Ernst & Young, Deloitte kabi auditorlik kompaniyalari ko‘maklashdi. Bu OKMKga S&P ("B+") va Fitch ("BB-"Barqaror prognoz) xalqaro kredit reytinglarini olish, shuningdek, vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro banklardan moliyalashtirishni jalb qilish imkonini berdi. Natijada OKMK 2,3 milliard dollar kredit mablag‘larini jalb qildi va 125 million dollar moliyaviy xarajatlarni iqtisod qildi.

Shuningdek, kombinat 56 ball bilan Sustainable Fitch tomonidan uchinchi darajali ESG reytingga ega bo‘ldi. Bu O‘zbekistondagi tarmoq korxonalari orasida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish va xaridlar shaffofligiga xam alohida e‘tibor qaratilib, KPMG tomonidan audit o‘tkazildi. Bu o‘z navbatida samaradorlikni oshirish yo‘llarini aniqlab berdi. PwC Central Asia and Caucasus kompaniyasi kondan metallurgiya zavodigacha bo‘lgan butun "Mis zanjiri"ni baholadi va ishlab chiqarishni optimallashtirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi"ni yaratishga ko‘maklashdi. Ernst&Young kompaniyasi kompliens va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha maslahatlar berdi.

Hozirda OKMK "Mas’uliyatli mis ishlab chiqaruvchi" sifatida “The Copper Mark” xalqaro sertifikatlashdan o‘tmoqda. Bu mahsulotlarning Yevropa bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi va ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalarni ko‘proq jalb qilish imkonini beradi.

OKMK Axborot xizmati